# O'ZBEKONA TURMUSH TARZIDA YUZ BERISHI MUMKIN BO'LGAN MUAMMOLAR.

**Tursunboyeva Dilnura**
**Ro'zibekova Malika**
**Olimjonova Ma'rifat**
*Ma'rifat Andijon Davlat Pedagogika Instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada muammo aslida o'zi nima ekanligi, qanday ma'no anglatadi, muammoni aslida nimalar keltirib chiqarishi va o'zbekona turmush tarz va unda yuz berishi mumkin bo'lgan muammolar hamda ularni oldini olish haqida so'z borgan.*

**Kalit so'zlar:** *Global muamo, turmush tarz, xulq-atvor, ekologiya, sotsiologik, ijtimoiy, sofdillik, sog'lom hayot, muammo, yechim, elat.*

Turmush tarzi — kundalik hayot kechirish yo‘li. Lotin tilida modus vivendi deyiladi. Turmush tarzi shaxs dunyoqarashini aks ettiradi. Masalan, diniy dunyoqarashli shaxs turmush tarzi din normalari (spirtli ichmaslik, ibodat qilish) bilan belgilansa, ekologiyaga berilgan shaxs turmush tarzi atrofni kirlatmaslikka tirishish bilan xarakterlanadi. Turmush tarzi — shaxs, ijtimoiy guruh, elat, millat, xalqning kundalik hayotini ifodalovchi tushuncha. Turmush tarziga turli jihatlar: falsafiy, sotsiologik, ijtimoiyiqtisodiy, ijtimoiyguruhiy va boshqa nuqtai nazardan yondoshiladi. Shaxs, ijtimoiy guruh Turmush tarzi muayyan davr shartsharoitlarining butun majmuasi bilan belgilanadi. Turmush tarzi ijtimoiy kategoriya. U turmush darajasi deb ataladigan iqtisodiy kategoriyaga nisbatan kengdir. Turmush darajasi, asosan, miqdor ko‘rsatkichiga ega bo‘lsa, Turmush tarzi ning mohiyati, mazmuni va namoyon bo‘lish shakllari ko‘p holatda kishilarning hayot kechirishi, mehnati, sog‘ligi va hatto xulqatvori bilan ifodalanadi. Muayyan elat, millat va xalqning Turmush tarzi ularning yashash joylari bilan bog‘liq holda shakllanib o‘zgarib boradi. O‘zbek xalqi o‘z g‘ayot faoliyatida kamtarlik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, bag‘rikenglik, sofdillik kabi axloqiy xislatlarga alohida e’tibor beradi. O‘zbek xalqidagi bunday fazilatlar milliy urfodat va an’analarda, kundalik hayot tarzi va millatlararo munosabatlarda aks etgan. Xalqimiz hayotida odobaxloq me’yorlari asosidagi rasmrusumlar, an’analar va odatlarning ahamiyati beqiyosdir. O‘zbek xalqi azaldan jamoa bo‘lib yashab, mahalla, qo‘shnichilik udumiga qat’iy rioya qilgan. Oilada tug‘ilgan har bir go‘dakka yaxshi niyat bilan ism qo‘yilgan, savodini chiqarish uchun uni ustozmuallim qo‘liga topshirilgan. Farzandlarni hunarli va uyjoyli qilish otaonalar faoliyatining eng muhim vazifasiga aylangan. Odamlarning, xususan, yoshlarning yurishturishi, ular amal qiladigan tamoyillar hamisha jamoa nazarida bo‘ladi. Muammo (qadimgi yunoncha: πρόβλημα prasoba — vazifa, topshiriq) [1] keng ma’noda — o‘rganish, hal etishni talab qiluvchi murakkab nazariy

yoki amaliy masala; fanda — har qanday hodisa, ob’yektlar, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi pozitsiyalar shaklida harakat qiladigan va uni hal qilish uchun adekvat nazariyani talab qiladigan qarama-qarshi vaziyat; hayotda muammo odamlar tushuna oladigan tarzda shakllantiriladi. Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning muhim sharti uni to‘g‘ri shakllantirishdir. Noto‘g‘ri tuzilgan muammo yoki psevdo-muammo haqiqiy muammolarni hal qilishdan uzoqlashtiradi[2]. Tizimologiyada tizim-tashkiliy faoliyat algoritmi harakatning rag‘batlantiruvchi omili sifatida tavsiflangan „Muammo“ bosqichidan boshlanadi. Inson uchun muammoning mohiyati shundan iboratki, u tahlil qilishni, baholashni, g‘oyani shakllantirishni, tajribada tekshirish va tasdiqlash bilan javob topish kontseptsiyasini talab qiladi. Muammo asosan aniq yechimga ega bo‘lmagan (noaniqlik darajasi bilan) savoldir. Muammo noaniqlik mavjudligida vazifadan farq qiladi. Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish hozirgi kuning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning eng kichik bo'gini bo'lmish oilada sog'lom turmush tarzini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Ammo oilada sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda ma'lum bir to'siqlarga duch kelmoqdamiz. Zararli odatlarning kundalik hayotimizning ajralmas qismi bo'lib qolganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu holatlarni bartaraf etish uchun Prezidentimizning "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida: "Barchamiz bundan jiddiy xulosa qilgan holda zararli odatlardan voz kechib, ommaviy sport bilan doimiy shug'ullanish, to'g'ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish, xususan tarkibida tuz, qand va yog' miqdori ko'p bo'lgan hamda xamirli taom va shirinliklarni, non mahsulotlarini me'yoridan ortiq iste'mol qilmaslikni, bir so'z bilan aytganda, sog'lom turmush tarzini kundalik hayotimizga aylantirishimiz zarur ekanligini bugungi davrning o'zi taqozo etmoqda.

"O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o‘z asarlarida, turli xalqaro anjumanlarda so‘zlagan nutqlarida Markaziy Osiyoda global muammolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llarini ko‘rsatib berdi, bu muammolarni hal qilish xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim sharti ekanligiga jahon jamoatchiligi e’tiborini qaratdi."

"Global muammolar — umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog‘liq hozirgi zamon muammolari. Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta’minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur’atlar bilan ko‘payayotganligini tartibga solish, atrof muhit halokatli tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar — oziq-ovqat, sanoat xomashyosi, energiya manbalari bilan ta’minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo‘l qo‘ymaslik kabilar kiradi. Global muammolar avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi."

**Xulosa:** Xulosa qilib shuni aytish mumkinki arzimagan bir hato katta salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi hamda oqibati ayanchli ahvolga kelishini ko'rishimiz mumkin. Sharq mutaffakkirlarining oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishda sog'lom dunyoqarash, sog'lom tafakkur, salomatlik qadriyatlari, sog'lom turmush madaniyatini bolalik chog'idan boshlab shakllantirish, sog'lom turmush kechirish uchun qalb va jism salomatligi uyg'unligiga erishish, odamlarning sog'lom turmush kechirishi o'zaro munosabatlarga bog'liq ekanligini uqtirganlar. Insonda ma'naviy- axloqiy fazilatlarni tarkib toptirish orqali sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish, turli zararli odatlarning inson salomatligiga ta'siri va uning oldini olish, xalq tabobatining jismoniy va ma'naviy salomatlikka ta'siri juda katta ekanligini ta'kidlaganlar.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Global_muammolar#:~:text=O%CA%BBzbekiston%20Respublikasi%20Prezidenti,jamoatchiligi%20e%CA%BCtiborini%20qaratdi.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Global_muammolar#:~:text=Global%20muammolar%C2%A0%E2%80%94%20umumbashariy,natijasida%20yuzaga%20keldi.
3. Mirziyoyev Sh.M O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasi hodimlariga ||Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari. 4-T "O'zbekiston", 2020, 382-bet.
4. Karimov I.A Barkamol avlod orzusi.-T.:1999-B35
5. Atakulov, Mavlonbek Saitqulovich Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish milliy qadriyatlarning o'rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), March, 2023 399-402.
6. Khamidova, M. A., & Orifkhonova, N. O. (2024). THE IMPORTANCE OF MICRO AND MACROELEMENTS IN MICROCLONAL PROPAGATION OF POTATOES. СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ И ИССЛЕДОВАНИЯ, 1(1), 195-197.
7. Rasulovna, N. Z. (2024). Some Aspects of Organizing and Improving Students' Oral Speech at Non-Language Faculties. Miasto Przyszłości, 49, 373-375.
8. Nazirova, Z. (2023). METHODS OF MEASUREMENT OF CORNEA DIAMETER IN CHILDREN. Science and innovation, 2(D12), 482-485.
9. Nazirova, Z. (2023). IMPROVING THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE TO VETERINARY STUDENTS. Science and innovation, 2(B7), 218-220.
10. Zilola, N. (2022). XORIJIY TILLARNI O 'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI (RUS TILI MISOLIDA). ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 1(1), 188-192.
11. Nazirova, Z. R. THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. Impact Factor: 4.9, 11.
12. Назирова, З. Р. (2021). THE MANAGEMENT ALGORITHM OF CHILDREN WITH REFRACTORY GLAUCOMA. УЗБЕКСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ЖУРНАЛ, (SPECIAL 1).

13. Rasulovna, N. Z. (2021, April). APPILICATION OF VIDEO MATERIALS IN THE FORMATION OF COMPETENCE OF VETERINARY STUDENTS IN THE STUDY OF THE RUSSIAN LANGUAGE. In Archive of Conferences (Vol. 18, No. 1, pp. 37-38).

14. Bo‘ronov, N. (2024). MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILIY MODUL MEXANIZMI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 454-457.

15. Nazim, B. R. (2022). O ‘zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba’zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o ‘rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov “Nido” dostonining til xususiyatlari haqida so. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 500-504.

16. Буронов, Н., & Шоғуломов, Д. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.

17. Bo‘ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI ASRDA DINIY EKSTREMIZM TAHDIDLARI. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 289-290).

18. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.

19. Аблаева, Н. К. (2024). РОЛЬ ПРИРОДЫ В ДРАМЕ ОСТРОВСКОГО «ГРОЗА». MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 8(8), 176-181.

20. Аблаева, Н. К. (2024). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ В БАЛЛАДЕ В. ЖУКОВСКОГО «СВЕТЛАНА». YANGI O ‘ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI, 1(3), 129-132.

21. Аблаева, Н., & Джуманиязова, И. (2024). ВОЗМОЖНОСТИ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО СЛОВООБРАЗОВАНИЯ. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 520-524.

22. Аблаева, Н. К. (2024). НРАВСТВЕННО-ФИЛОСОФСКАЯ ПРОБЛЕМА В ТВОРЧЕСТВЕ ЛН Толстого (на примере романа" Война и мир"). JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH, MODERN VIEWS AND INNOVATIONS, 1(1), 24-27.

23. Egamberdiyeva, D., & Kuchkorova, K. (2023). Development of methodological programs in a foreign language. Interpretation and researches, 1(9).

24. Egamberdiyeva, D., & Uzokboyeva, D. (2023). METHODS OF TEACHING SPEECH ETIQUETTE IN ENGLISH LESSONS. Interpretation and researches, 1(9).